# Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11389,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 99,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,9 %) ni tashkil etdi.







***B**– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 44,4 % va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 98,0 % pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 100,3 % hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 113,0 % ga o'sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1261,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1 % ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Neft, ming t. | 442,5 | 24,5 | -418,0 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 26749,9 | 2050,3 | -24699,6 |
| Gaz kondensati, ming t. | 1153,9 | 231,1 | -922,8 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 96,3 | 179,0 | 82,4 |
| Shag‘al , ming t. | 157,3 | 128,9 | -28,4 |
| Tabiiy qumlar, ming t. | 126,7 | 129,9 | 3,2 |

### Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7958,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,9 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*

| 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|
| yanvar-oktabr | yanvar-oktabr | yanvar-oktabr |
| 51,0 | 42,9 | 69,9 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi faoliyat turlari tomonidan ishlab chiqarish

| Faoliyat turlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **To'qimachilik mahsulotlari mlrd.so'm** | 1900,9 | 1952,1 | 51,2 |
| **Kimyo mahsulotlari mlrd. so'm** | 1951,7 | 2362,5 | 410,8 |
| **Boshqa nometal mineral mahsulotlar mlrd.so'm** | 321,4 | 298,5 | 22,9 |
| **Rezina va plastmassa buyumlar mlrd. so'm** | 20,4 | 20,9 | 0,5 |

2020-yilning yanvar-oktabr holatiga Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish o'sish sur'ati 126,8 %, Rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish 109 %, To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish o'sish sur'ati 104 % hamda,Boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish 100,3 % kuzatishimiz mumkin.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019-yilning yanvar-oktabr oylarida - 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 20,9 % (11,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 3,7 % (2,7 %) va quyi texnologiyalisi - 45,2 % (28,2 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,2 % (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 20,7 % (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,8 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,1 % (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5756,5 ming litr aroq (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 360,0 % ga o‘sgan), 127,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (111,2 %), 169,2 ming tonna kaliy xlorid (104,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *% da*

**Paxta tolasi**




**Kaliy xlorid**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta chigiti**




**Uzum vinosi**




**Aroq**




**O’simlik yog’i (tozalangan)**




**Asfaltli aralashmalar**




**Kalava ip**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Og'irligi0,94 dan kam bo'lmagan polietilen,** ming t. | 111,2 | 109,1 | -2,1 |
| **Asfaltli aralashmalar,** ming t. | 86,4 | 64,1 | -22,3 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** ming t. | 115,1 | 127,9 | 12,8 |
| **Paxta tolasi,** ming t. | 34,0 | 36,4 | 2,4 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan),** ming t. | 9,3 | 6,5 | -2,8 |
| **Kaliy xlorid,** ming t. | 161,7 | 169,2 | 7,5 |
| **Plastmassa quvurlar,** ming t. | 3,7 | 4,1 | 0,4 |
| **Ip kalava,** ming t. | 19,9 | 21,4 | 1,5 |

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*







Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2104,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (18,4 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,0 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 10486,7 | 7765,9 | -2720,8 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2841,2 | 2552,8 | -288,4 |

**Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish**







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-oktabr | 2020- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 5,1 | 0.8 | -4,3 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo’yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 21624,0 | 28382,1 | 6758,1 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo’yicha taqsimlash bo’yicha xizmartlar 131,3 % ga o’sishi kuzatildi.

**Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3695,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,5 % (2019- yil yanvar-oktabr oylarida 1,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 31,0 % ni, shuningdek Shahrisabz tumani 9,3 % ni, Yakkabog’ tumani 9,1 % ni, Koson tumani 8,4 % ni hamda Shahrisabz shahri 6,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (102,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Yakkabog’ (123,3 %), shahrisabz shahri (110,9 %), hamda Kasbi tumanida (103,3 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-sentabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 3695,6 | 100,0 | 102,4 |
| Qarshi sh. | 1146,1 | 31,0 | 98,6 |
| Shahrisabz sh. | 242,9 | 6,6 | 110,9 |
| G’uzor | 97,7 | 2,6 | 99,4 |
| Dehqonobod | 61,7 | 1,7 | 98,7 |
| Qamashi | 185,2 | 5,0 | 100,4 |
| Qarshi t. | 164,8 | 4,5 | 101,6 |
| Koson | 310,9 | 8,4 | 101,0 |
| Kitob | 220,4 | 6,0 | 100,7 |
| Mirishkor | 90,7 | 2,5 | 101,4 |
| Muborak | 84,8 | 2,3 | 96,1 |
| Nishon | 94,7 | 2,6 | 99,3 |
| Kasbi | 106,2 | 2,9 | 103,3 |
| Chiroqchi | 212,2 | 5,7 | 100,5 |
| Shahrisabz t. | 342,2 | 9,3 | 102,0 |
| Yakkabog’ | 335,1 | 9,1 | 123,3 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 29,2 % ni, shuningdek, Shahrisabz tumani 10,1 % ni, hamda Yakkabog’ tumani 9,3 % ni  tashkil eti.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 1424,4 | 100,0 | 186,2 |
| Qarshi sh. | 415,4 | 36,2 | 95,3 |
| Shahrisabz sh. | 81,2 | 33,4 | 117,8 |
| G’uzor | 41,1 | 42,0 | 98,0 |
| Dehqonobod | 24,7 | 40,0 | 98,1 |
| Qamashi | 75,9 | 41,0 | 100,9 |
| Qarshi t. | 65,9 | 40,0 | 102,9 |
| Koson | 120,6 | 38,8 | 107,8 |
| Kitob | 88,2 | 40,0 | 102,6 |
| Mirishkor | 36,3 | 40,0 | 102,4 |
| Muborak | 33,8 | 39,9 | 97,1 |
| Nishon | 37,8 | 40,0 | 99,1 |
| Kasbi | 42,5 | 40,0 | 104,3 |
| Chiroqchi | 84,9 | 40,0 | 100,9 |
| Shahrisabz t. | 143,5 | 41,9 | 102,6 |
| Yakkabog’ | 132,7 | 39,6 | 102,1 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 32,2 % ni, shuningdek, Yakkabog’ tumani 8,9 % ni, Shahrisabz tumani esa 8,8 % ni tashkil etib, o‘sish sur’atida esa eng yuqori ko‘rsatkich Shahrisabz shahrida (119,3 %), Yakkabog’ (112,4 %) hamda Kasbi tumanlarida (102,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 2271,2 | 100,0 | 101,5 |
| Qarshi sh. | 730,7 | 32,2 | 100,6 |
| Shahrisabz sh. | 161,7 | 7,1 | 119,3 |
| G‘uzor | 56,6 | 2,5 | 100,5 |
| Dehqonobod | 37,0 | 1,6 | 99,5 |
| Qamashi | 109,3 | 4,8 | 100,1 |
| Qarshi t. | 98,9 | 4,4 | 100,8 |
| Koson | 190,3 | 8,4 | 97,1 |
| Kitob | 132,2 | 5,8 | 99,4 |
| Mirishkor | 54,4 | 2,4 | 100,8 |
| Muborak | 51,0 | 2,2 | 95,4 |
| Nishon | 56,8 | 2,5 | 99,4 |
| Kasbi | 63,7 | 2,8 | 102,6 |
| Chiroqchi | 127,3 | 5,6 | 100,3 |
| Shahrisabz t. | 198,7 | 8,8 | 101,5 |
| Yakkabog‘ | 202,4 | 8,9 | 112,4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1591,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 14,0 % ni tashkil etdi.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 11389,4 | 100,0 | 99,4 |
| Qarshi sh. | 2306,4 | 20,3 | 100,3 |
| Shahrisabz sh. | 251,8 | 2,2 | 100,5 |
| G’uzor | 2193,7 | 19,3 | 108,2 |
| Dehqonobod | 460,9 | 4,0 | 102,1 |
| Qamashi | 316,8 | 2,8 | 114,9 |
| Qarshi t. | 470,6 | 4,1 | 74,0 |
| Koson | 526,9 | 4,6 | 104,9 |
| Kitob | 281,5 | 2,5 | 102,2 |
| Mirishkor | 208,2 | 1,8 | 92,6 |
| Muborak | 500,5 | 4,4 | 69,6 |
| Nishon | 2344,8 | 20,6 | 100,8 |
| Kasbi | 314,6 | 2,8 | 128,7 |
| Chiroqchi | 282,3 | 2,5 | 109,0 |
| Shahrisabz t. | 499,3 | 4,4 | 102,6 |
| Yakkabog’ | 431,1 | 3,8 | 105,7 |

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Muborak tumani (2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 69,6 %), Qarshi tumani (74,0 %), hamda Mirishkor tumanida (92,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da* | Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da |
|---|---|




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 128,7 %), Qamashi (114,9 %), Chiroqchi (109,0 %) hamda G'uzor tumanlarida (108,2 %) sezilarli darajada oshdi.

**Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 20,6 %) hamda Qarshi sh. (20,3 %), G'uzor (19,3 %) va Koson (4,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirishkor (1,8 %) hamda Shahrisabz shahriga (2,2 %) to'g'ri kelmoqda.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3 452,2 | 1 120,1 |
| Qashqadaryo viloyati | |

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qarshi sh. | 8 344,4 | 4 146,5 |
| Shahrisabz sh. | 1 802,9 | 1 740,2 |
| G’uzor | 10 701,1 | 476,7 |
| Dehqonobod | 3 114,5 | 417,0 |
| Qamashi | 1 164,4 | 680,7 |
| Qarshi t. | 1 889,0 | 661,7 |
| Koson | 1 837,9 | 1 084,3 |
| Kitob | 1 064,4 | 833,2 |
| Mirishkor | 1 733,6 | 755,1 |
| Muborak | 5 738,5 | 972,3 |
| Nishon | 15 275,8 | 616,8 |
| Kasbi | 1594,5 | 538,3 |
| Chiroqchi | 682,6 | 513,2 |
| Shahrisabz t. | 2 247,2 | 1 540,0 |
| Yakkabog’ | 1 632,9 | 1 269,1 |

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (15 275,8 ming so‘m), G’uzor (10 701,1 ming so‘m), Qarshi shahrida (8 344,4 ming so‘m) hamda Muborak tumanlarida (5 738,5 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 452,2 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 120,1 ming so‘m bo‘lgani holda, Qarshi shahrida – 4 146,5 ming so‘mni, Shahrisabz shahrida – 1 740,2 ming so‘mni, Shahrisabz tumanida – 1 540,0 ming so‘mni, Yakkabog’ tumanida 1 269,1 ming so‘mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3825,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,6 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob (jami sanoat mahsulot-lari ishlab chiqarishdagi ulushi 95,9 %), Qamashi 92,2 %), Shahrisabz sh. (83,0 %) hamda Chiroqchi (80,6 %), tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nishon (4,4 %), G’uzor (5,0 %), Dehqonobod (16,8 %) va Muborak (17,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 3918 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 757 tasi ( faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,3 % i) Qarshi shahriga, 459 tasi Kitob tumaniga (11,7 %), 354 tasi Yakkabog’ tumaniga (9,0 %), 338 tasi Shahrisabz shahri (8,6 %), 324 tasi Chiroqchi (8,2 %) tumaniga to‘gri kelmoqda.

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda* | Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* |
|---|---|



2020- yilning yanvar-oktabr oyida viloyatda 740 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 114 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 15,4 %), Qarshi sharida, 80 tasi (10,8 %), Kitob tumanida, 77 tasi (10,4 %), Chiroqchi tumanida, 71 tasi (9,6 %), Yakkabog' tumanida tashkil etildi.

**Sanoat Statistikasi**
**Bo'limi**
*Tel.: (75) 221-32-36*